

ISSN:
3060-5245
ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

.....

2026



Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEKNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

Iyun № 6, 2026

№ 083688



Platform &
workflow by

OJS / PKP
.....

Toshkent-2026

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamonov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriiddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitoval Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasilov Abdusiz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galinova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriiddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:
<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 907 sahifa.
E'lon qilishga 2026-yil 30-iyunda
ruxsat etildi.

“AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduktsiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

BAKAYEV ZIYOVUDDINXON TOSHBOLTA O‘G‘LI

Turizm va mehmondo‘stlik sohasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....16

ИБРАГИМОВА МАДИНА ИСМОИЛОВНА

Инвестиции в человеческий капитал как фактор экономического роста.....25

MAXMUDOV JASURBEK ERGASHEVICH

Investitsion salohiyatni oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni.....35

MUROTKOSIMOV SHOXRUX ABDISALIMOVICH

Korporativ ijtimoiy boshqaruv tizimini rivojlantirishda ESG tamoyillari va raqamli texnologiyalarning roli.....43

ESHMIRZAYEV SODIKJON ERKONBOY O‘G‘LI

Sanoat korxonalarida quyosh energetikasi loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish.....53

IBROXIMOVA NAFOSAT ABDUSATTOR QIZI

Raqamli iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari.....60

QODIROVA MOHINUR BAHODIR QIZI

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish.....69

XAYDAROVA E‘ZOZA SHUKURULLAYEVNA

Korxonalarda innovatsion salohiyatni boshqarishning rivojlanish tendensiyalari.....78

MAMANOV MUKHAMMADAMIN

Comparative analysis of management strategies for tourism enterprises in developed and developing countries.....84

TOXIROVA NIGORA ZOKIRJON QIZI

Mintaqaviy korxonalar faoliyati samaradorligining tashkiliy va funksional diagnostik rivojlanish tendensiyalari.....96

ODILOVA DILNOZAXON BARNAYEVNA

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning usullari.....103





TOSHOV MIRZABEK HAKIMOVICH

Buxoro viloyatida sanoat va turizm integratsiyasi: iqtisodiy samaradorlik tahlili.....107

ABDULLAEV MUZAFFAR ABDUJABBAROVICH

Evaluation of the results of innovation activities, decision-making and its formation.....112

RAHMONOVA TILLA'OV MALIK QIZI

Hududlararo sanoat diversifikatsiyasi asosida mintaqaviy rivojlanishni baholashning iqtisodiy-matematik modellari.....119

IBRAGIMOV AZIZ TURAYEVICH

Buxoro viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va asosiy ko'rsatkichlari.....125

NIGMATJONOV SARDOR ABDUMANNONOVICH

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining fanlararo bog'liqligi: nazariy asoslar va amaliy yondashuv.....138

ИЛХОМЖОНОВА ФОТИМА МУХИДДИНОВНА

Методические основы оценки инвестиционного потенциала регионов....145

RO'ZMETOV NOSIRJON XAMIDJON O'G'LI

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlari va istiqbollari.....155

RAHMONQULOVA KOMILA MUHAMMADI QIZI

Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o'sish omillarining ekonometrik tahlili.....164

ABDUNAZAROV SAIDAXMAT ABDUMALIKOVICH, SHAMSIYEVA DILSHODA ASQARALI QIZI

Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion boshqaruvning roli.....173

OBILOV MIRKOMIL RASHIDOVICH

Investitsiya resurslarini optimal yo'naltirishda moliyaviy savodxonlikning roli.....178

MAMATKULOVA XURSHIDA NASRULLAYEVNA

Xitoy tajribasi asosida O'zbekistonda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....185

OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA

Korxonalarda yashil menejment tizimini joriy etish samaradorligi.....191





BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA

Korxonalar marketing boshqaruvida elektron tijorat va Omni-kanal strategiyalarini qo'llashning asosiy jihatlari.....198

**KUZIYEVA GULNOZA RASHIDOVNA, DILRABO SAYDALIYEVA
BAKHRIDDIN KIZI**

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....204

**DONIYEV SHAHOB O'TKIR O'G'LI, HALIMOV JAVLONBEK
SHAHRIYOROVICH**

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va inflyatsiya o'rtasidagi iqtisodiy bog'lanish.....210

OXUNOVA OYGUL USMONJON QIZI

Genderlik tengligi va barqaror mehnat bozorini rivojlantirish: OECD va Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy tahlili.....215

ISLOMOV JAVOHIR ISKANDAR O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida islomiy moliya darchalari faoliyatining buxgalteriya hisobini yuritish va dasturiy ta'minot integratsiyasi istiqbollari.....221

МУХАММАДИЕВ НАУФАЛБЕК АЗИЗБЕК УГЛИ

Влияние электронной коммерции на рост валового внутреннего продукта нашей страны.....230

TAIROVA ZARNIGOR MAMMAT QIZI

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish usullari.....238

BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA

To'qimachilik tovarlari raqobatbardoshligini oshirishda iste'molchilar xulq-atvorining ta'siri.....248

ЮЛДАШОВА ГАВХАР ХУСНИТДИНОВНА

Приоритетное значение инновационных подходов и стратегического развития в системе корпоративного управления.....257

ABDUSALOMOVA FARIDA OLIMJON QIZI

Raqamli transformatsiyaning xizmat ko'rsatish sohasida bandlik va daromadlarga ta'siri.....262





XASANOVA RAYXON BOZOROVNA

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida banklarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari.....271

OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA

Korxonalarda innovatsion madaniyatni shakllantirish mexanizmlari.....279

SULEYMANOV FARRUX RAXIMJON O'G'LI

Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan infratuzilma aktivlarini boshqarish modellari.....284

TURDIMURATOV MAQSUD MUZAFFAROVICH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida qurilish sohasida zamonaviy boshqaruv tizimlarini iqtisodiy ahamiyati.....290

TURUMOVA DILDORA ABDUMANNONOVNA

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar hisobining zamonaviy holati va rivojlantirish istiqbollari.....297

SHODMONQULOV KAMOLIDDIN MURODILLAYEVICH

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy muammolarni bartaraf etish yo'llari.....304

MO'MINOVA KANIZAXON YO'LDASHALI QIZI

Kichik korxonalarda eksport salohiyatini oshirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.....311

MAXTIMOVA ZARAFSHON OLLOYOROVNA

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yashil moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarni optimallashtirish istiqbollari.....322

TAIROVA ZARNIGOR MAMMAT QIZI

O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarining resurs salohiyatidan samarali foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....333

ASLANOVA DILNOZA FATILLOYEVNA

Qishloq xo'jaligi va turizm integratsiyasi: agroturizmning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri.....340

SAFAROV BEKZOD ISTAMOVICH

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-texnik mahsulotlarning mohiyati, turlari va o'ziga xos xususiyatlari.....348





LAZIZ ABDUGHAFFOROVICH URINOV

Main directions of banking services development in Uzbekistan and their impact on efficiency of banking activity.....356

MIRZAYEVA RO'ZIGUL AZAMAT QIZI, ESHQULOVA NASIBA
NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish asosida takomillashtirish.....363

SULEYMANOV FARRUX RAXIMJON O'G'LI

Madaniy meros obyektlari va tarixiy binolarni aktivlar menejmenti asosida muhofaza qilish va saqlash metodikasi.....370

SRAJIDINOVA NODIRA SHAVKATOVNA

Sanoat tarmoqlarini ixtisoslashuv va diversifikatsiya asosida rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi.....378

АКАБИРХОДЖАЕВА ДИЛФУЗА РУСТАМОВНА

Оптимизация запасов энергетических ресурсов агропредприятия на основе экономико-математического моделирования в Mathcad.....384

ALIMOVA SHAMSIYA ABIDOVNA

Ta'lim xizmatlari eksporti milliy iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida.....391

UROZOVA SHAXLO, HAZRATQULOV SHANBOZ

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda investitsiyalarni rivojlantirish yo'llari.....399

ХОДЖАЕВА ДИЛБАР

Сельский туризм как инструмент сокращения бедности сельского населения: опыт и перспективы Бухарской области.....406

KARIMOV SHANBOZZO'JA XAMDAMJON O'G'LI

Turizmi barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....422

МУХАММАДИЕВА НОДИРА АХМАДОВНА

Территориальный маркетинг в туризме: зарубежный опыт формирования и реализации концепции.....428

SIROJEV NURBEK G'ULOMIDDIN O'G'LI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirishning xorij tajribalari.....440





ELBOYEVA SHAXZODA OLIMOVNA

Ipakchilik klasterlari uchun integratsiyalashgan investitsion boshqaruv modeli.....446

URAZMATOV JONIBEK MUSURMANOVICH

Elektron hisob-faktura va real vaqt rejimidagi nazorat mexanizmlarining iqtisodiy tahlili.....459

RAHIMOVA DURDONA RAVSHANOVA

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....465

XODJAYEVA MUHAYYO ULMASOVNA

Xalqaro audit standartlarini o'rganishda auditning shakllanishi va turlari.....475

FARMONOV OTABEK HAYITMURODOVICH

O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga a'zoligining qishloq xo'jaligiga ta'siri.....484

UBAYDULLAYEV G'AYRAT ZUVAYTOVICH, G'ANIYEV SARDOR TOSHMURODOVICH

Raqamli transformatsiyaning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini empirik tahlil qilish.....491

МАКСУМХАНОВА АЗИЗАХОН МУКАДИРОВНА, САЙДАЛИМОВА ДИЁРАХОН БАХОДИРОВНА, ТУХЛИЕВ НУРИСЛОМ УЧКУН УГЛИ

Развитие деятельности сферы услуг с использованием цифровых технологий.....498

MAHMUDOV FAYZULLA MURODULLAYEVICH

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining ahamiyati.....506

BEGBUTAEV HASAN ARALOVICH

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning institutsional omillari.....512

UBAYDULLAYEV G'AYRAT ZUVAYTOVICH, SHODMANOV TOSHEMIR RO'ZIYEVICH

Raqamli transformatsiya va boshqaruv samaradorligini kompleks baholash.....520

BEGBUTAEV HASAN ARALOVICH

Yashil iqtisodiyot va ekologik investitsiyalarning samaradorligi.....526





YULDASHEVA GULMIRA AZATOVNA

Hududiy sharoitlar asosida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida diversifikatsiya jarayonining shakllanishi.....533

G'OFUROVA LOLA RUYIDDINOVNA

Elektron tijoratning tadbirkorlik rivojlanishidagi o'rnini va istiqbollari.....542

MIRZATAEV SALAMAT MURATBAEVICH

Improvement of the scientific basis of the application of smart technologies in reducing ecological risks in the agricultural sector550

XAYDAROV JAHONGIR BAXTIYAROVICH

Parrandachilikning rivojlanish bosqichlari hamda unga mos holda shakllangan xizmatlar turlari.....558

ТАДЖИЕВА САЙЕРА УРАЛОВНА, БОЛТАЕВ ЖАСУРБЕК ГУЛЯМОВИЧ

Территориальный маркетинг, экономическая специализация и конкурентоспособность как факторы развития Бухарской области.....565

QULMATOVA SAYYORA SAFAROVNA

O'zbekiston uy xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ekonometrik tahlili va LA-AIDS modeli asosida prognozlash.....577

ISAXODJAEVA ZULFIYA SHUXRATULLAEVNA

O'zbekistonda agrar va elektron tijorat sohaslarida masofaviy raqamli texnologiyalarini tashkiliy-huquqiy asoslari.....585

SAITMURATOV SAITMURAT MASHARIP O'G'LI

Budjet tashkilotlarida ichki auditni xavfga asoslangan metodologiya asosida takomillashtirish.....598

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda sabzavot ekinlari urug'chiligidagi ahamiyati.....607

XADJIBEKOVA AZIZA AKBAROVNA

Ichki va tashqi turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....615

KIDIRNIYAZOV AJINIYAZ SHERNIYAZOVICH

Innovative mechanisms of service delivery in construction projects based on artificial intelligence.....621





QURBONOVA XURSHIDA IDIYEVNA, SAXATOVA SHAHZODA

Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining ekologik innovatsion faoliyatini takomillashtirish.....629

XAYDAROV JAHONGIR BAXTIYAROVICH

Toshkent viloyatida parrandachilikda xizmatlar bozorini rivojlantirish.....643

KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA

Tijorat banklarida kadrlar salohiyatini boshqarish samaradorligini baholashning istiqbolli ko'rsatkichlari.....649

ABDUNAZAROV JASURBEK ABDURAXMONOVICH

Moddiy zaxiralar hisobi ma'lumotlaridan foydalangan holda xarajatlarni tahlil qilish.....657

MIRZAEV AKMAL ARZIEVICH

Paxtachilikda suv tejovchi texnologiyalar samaradorligini baholashning institutsional-iqtisodiy yondashuvi.....665

ABDULLAEVA GO'ZAL ALTINBEKOVNA

Stress-testlash va stressuz integral indeksi asosida banklar iqtisodiy xavfsizligini baholash va prognozlash.....670

AZIMOV ISLOM XOLMURODOVICH

Xizmatlar infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari.....681

SAUXANOV JANIBEK KAZIEVICH, MIRZANOV ZAKIR MARATOVICH

Modeling forecast indicators of cotton growing and processing clusters.....688

MO'YDINOVA GULNOZAXON QAHRAMON QIZI, XABIBULLAYEV MUHAMMADSODIQ XUSNIDDIN O'G'LI

Xizmat ko'rsatish korxonalarini barqaror rivojlantirishda boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati.....696

UBAYTOVA MOHITOBOB JO'RA QIZI

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarida soliq majburiyatlari hisobi va tahlilini raqamli transformatsiyalash metodologiyasi.....702

ISAXODJAEVA ZULFIYA SHUXRATULLAEVNA

Agrobiznes va elektron tijorat sohalarida o'qitishning integrallashgan raqamli tizimining baholash usullarini joriy etish yo'llari.....708





MURTOLIBOVA MADINA MIRJAMSHID QIZI

Mehmonxona tizimida barqaror rivojlantirish va boshqaruv mexanizmini bozor tamoyillariga moslash yo'llari.....720

SAITMURATOV SAITMURAT MASHARIP O'G'LI

Budjet tashkilotlarida ichki auditning dalil bazasi va tahliliy protseduralar metodikasini takomillashtirish.....726

XOLIQOV ABBOS RASULJONOVICH

O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarni termik yoqish orqali muqobil energiya olish istiqbollari.....734

MAXAMATOVA MALIKA ABDURASHID QIZI

Hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish mexanizmlari.....734

BAXRIYEV MUXRITDIN ZAFAR O'G'LI

Energiya resurslari narxidagi mintaqaviy tafovutlarning O'zbekiston issiqxona xo'jaliklari iqtisodiy barqarorligiga ta'siri.....744

XOLIQOV ABBOS RASULJONOVICH

O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarni termik yoqish orqali muqobil energiya olish istiqbollari.....753

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

NAZAROV XUDAYBERDI KUYDIMURATOVICH, FARMANOV TO'LQIN XAYITMURODOVICH, AZIZOV KOBULJAN KAXRAMANOVICH

Makkajo'xorining yangi tepishar, hosildor navlari va birlamchi urug'chiligidan iqtisodiy samaradorligi.....759

SARSENBAYEV AMANIYAZ AMINBAYEVICH, TO'XTAYEV BOBOQUL YORKULOVICH, BERDIBAYEVA DILFUZA BAZARBAYEVNA

Humulus Lupulus L. o'simligining ildizini anatomik tuzilishining birinchi va ikkinchi vegetatsiya davrlarida turli ekologik sharoitlarda o'zgarishi.....772

SHOKIROV ALISHER JO'RABOYEVICH, TO'RAMATOV RUSTAM G'OPUROVICH, ABDURAXIMOV MUZAFFAR ABDUG'OFUROVICH

Turli ekish sxemalarini takroriy ekinlarda yetishtirilgan qovoq navlari hosildorligiga ta'siri.....777





UO'K: 338.43:635.1/.8(575.1)

ENERGIYA RESURLARI NARXIDAGI MINTAQAVIY TAFOVUTLARNING O'ZBEKISTON ISSIQXONA XO'JALIKLARI IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI

BAXRIYEV MUXRITDIN ZAFAR O'G'LI

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish
va tadqiqotlar xalqaro markazi tayanch-doktoranti

E-mail: m.bakhrayev@cardr.uz

Annotatsiya. Maqolada subsidiyalashgan raqobat va energiya narxlari tafovutining O'zbekiston issiqxona xo'jaliklari iqtisodiy barqarorligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istondagi elektr energiyasi hamda tabiiy gaz narxlari qiyosiy baholanib, ularning mahsulot tannarxi va raqobatbardoshlikka ta'siri o'rganilgan. Natijalar energiya resurslari narxlaridagi sezilarli farqlar mahalliy ishlab chiqaruvchilar xarajatlarini oshirib, eksport salohiyati va bozor ulushining qisqarishiga olib kelayotganini ko'rsatadi. Maqolada sohaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: issiqxona xo'jaligi, subsidiyalashgan raqobat, energiya narxlari, pomidor eksporti, Turkmaniston, Qozog'iston, O'zbekiston, tannarx tahlili, agrar siyosat, energiya samaradorligi.

Аннотация. В статье анализируется влияние субсидируемой конкуренции и разницы цен на энергоресурсы на экономическую устойчивость тепличных хозяйств Узбекистана. В исследовании проведена сравнительная оценка цен на электроэнергию и природный газ в Узбекистане, Туркменистане и Казахстане, изучено их влияние на себестоимость продукции и конкурентоспособность. Результаты показывают, что значительные различия в ценах на энергоресурсы повышают издержки местных производителей, что приводит к снижению экспортного потенциала и доли рынка. В статье разработаны предложения и рекомендации, направленные на обеспечение экономической устойчивости и повышение конкурентоспособности отрасли.

Ключевые слова: тепличное хозяйство, субсидируемая конкуренция, цены на энергоресурсы, экспорт томатов, Туркменистан, Казахстан, Узбекистан, анализ себестоимости, аграрная политика, энергоэффективность.

Abstract. The article analyzes the impact of subsidized competition and energy price disparities on the economic sustainability of greenhouse farms in Uzbekistan. The study provides a comparative assessment of electricity and natural gas prices in Uzbekistan, Turkmenistan, and Kazakhstan, examining their effect on production costs and competitiveness. The results show that significant differences in energy resource prices increase costs for local producers, leading to a decline in export potential and market share. The article develops proposals and recommendations aimed at ensuring the economic sustainability and enhancing the competitiveness of the sector.

Keywords: greenhouse farming, subsidized competition, energy prices, tomato exports, Turkmenistan, Kazakhstan, Uzbekistan, cost analysis, agrarian policy, energy efficiency.

KIRISH

Issiqxona sabzavotchiligi O'zbekiston qishloq xo'jaligining yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2022 yilda mamlakatda 3 mingdan ortiq issiqxona xo'jaligi faoliyat yuritgan bo'lib, ularning umumiy maydoni qariyb 6,3 ming gektarni tashkil etgan. Shu yilda issiqxona mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 301 ming tonnaga yetgan, shundan 211 ming





tonnasi pomidor hissasiga to'g'ri kelgan va mazkur ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan 26 foizga oshgan [1].

So'nggi yillarda tarmoqda tashqi bozorlarda raqobat muhitining kuchayishi, energiya resurslari narxlarining o'zgarishi va ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi natijasida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida issiqxona mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan energiya resurslari narxlari va ularni shakllantirish mexanizmlaridagi farqlar mahsulot tannarxi hamda eksport raqobatbardoshligiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda issiqxona xo'jaliklari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlari qo'shni davlatlardagi ayrim ko'rsatkichlardan yuqoriroq darajada shakllangan. Masalan, elektr energiyasi uchun o'rtacha tarif 1 kVt-soat uchun 0,085 AQSH dollarini, tabiiy gaz uchun esa 1 m³ uchun 0,155 AQSH dollarini tashkil etsa, ayrim qo'shni mamlakatlarda ushbu ko'rsatkichlar nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda[2]. Natijada energiya xarajatlari ulushining yuqoriligi mahsulot tannarxining shakllanishiga va tashqi bozorlarda raqobat sharoitlariga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo mamlakatlarida energiya resurslari narxlaridagi farqlarning O'zbekiston issiqxona xo'jaliklari iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash, shuningdek, tarmoq samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: Markaziy Osiyo davlatlarida energiya resurslari narxlari dinamikasini qiyosiy tahlil qilish; energiya xarajatlaridagi farqlarning issiqxona mahsulotlari tannarxiga ta'sirini baholash; eksport faoliyati va raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillarni aniqlash; issiqxona xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash bilan birga, sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Energiya narxlari subsidiyalari va ular raqobat muhitiga ta'siri masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Stiglitz (2015) subsidiyalar milliy sanoatni qisqa muddatda himoya qilsa-da, uzoq muddatda resurslarni noto'g'ri taqsimlashga olib kelishini ta'kidlaydi [3]. WTO kelishuvlari doirasida ham subsidiyalashtirilgan eksport tushunmovchiliklar manbai sifatida qoraladi [4].

Markaziy Osiyo agrar iqtisodiyoti sohasida Lerman va Sedik (2014) O'zbekiston va qo'shni davlatlar qishloq xo'jaligi siyosatini taqqoslab, davlat aralashuvi darajasining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini o'rgangan [5]. EastFruit tahliliy portali 2022–2025 yillar davomida O'zbekiston issiqxona





pomidori eksporti dinamikasini kuzatib, Turkmaniston raqobatchiligi keskin kuchayganini qayd etgan [6].

O'zbekistonda issiqxona energiya tejash muammolariga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlar orasida Abduvaliyev va boshq. (2024) energiya xarajatlarining tannarxdagi ulushini 25 foiz, qarz xizmatini esa 30 foiz deb baholagan [7]. Biroq qo'shni davlatlar subsidiyalari va O'zbekiston raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy jihatdan to'liq ochib beruvchi yaxlit tadqiqot hali amalga oshirilmagan — ushbu maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil va miqdoriy baholash metodlaridan foydalanilgan. Ma'lumotlar asosan quyidagi manbalardan to'plangan: O'zbekiston Energetika vazirligi rasmiy tarif ma'lumotlari (2024–2026); GlobalPetroPrices.com xalqaro statistikasi; EastFruit agrar bozor tahlil portali; Invest.gov.kz Qozog'iston investitsiya ma'lumotlari bazasi; HortiDaily va Tridge xalqaro bozor hisobotlari; O'zbekiston Issiqxona xo'jaliklari uyushmasi ma'lumotlari.

Energiya narxlari AQSH dollari ekvivalentida solishtirma asosda tahlil qilingan. Tannarx modeli O'zbekiston issiqxona xo'jaliklari uyushmasi tomonidan e'lon qilingan xarajat tarkibiga tayanadi. Eksport dinamikasi tahlili 2019–2025 yillar qatorini qamrab olgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Markaziy Osiyo davlatlarida energiya narxlari taqqoslamasi.

1-jadval ma'lumotlari Markaziy Osiyo davlatlarida biznes subyektlari uchun energiya resurslari tariflari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, issiqxona xo'jaliklari kabi energiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar uchun elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlari mahsulot tannarxi hamda raqobatbardoshlikni belgilab beruvchi asosiy iqtisodiy omillardan hisoblanadi.

1-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarida biznes iste'molchilari uchun energiya narxlari (2025–2026)

Davlat	Elektr, \$/kWh	Gaz, \$/m ³	Darajasi	Izoh
O'zbekiston	0,085	0,155	O'rta	2026-yil iyundan 2 000 so'm/m ³
Qozog'iston	0,063–0,076	0,050– 0,090	Arzon	Mintaqaga qarab farq qiladi
Turkmaniston	~0,010	0,025– 0,040	Eng arzon	Ishlab chiqarish tannarxiga yaqin
Dunyo o'rtachasi*	0,164	0,071	—	*GlobalPetroPrices, 2025

Manba: GlobalPetroPrices (2025–2026), O'zbekiston Energetika vazirligi; muallif tomonidan tizimlashtirilgan.





Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda biznes iste'molchilari uchun elektr energiyasi tarifi 1 kVt-soat uchun 0,085 AQSH dollarini tashkil etgan holda, Qozog'istonda mazkur ko'rsatkich 0,063–0,076 AQSH dollari, Turkmanistonda esa taxminan 0,010 AQSH dollari darajasida shakllangan. Demak, O'zbekistondagi elektr energiyasi narxi Turkmanistondagi ko'rsatkichga nisbatan taxminan 8,5 barobar yuqori bo'lib, bu energiya xarajatlari ulushi katta bo'lgan ishlab chiqarish faoliyatida muhim iqtisodiy farqni yuzaga keltiradi.

Tabiiy gaz tariflari tahlili ham shunga o'xshash holatni namoyon etadi. O'zbekistonda 1 m³ tabiiy gazning narxi 0,155 AQSH dollarini tashkil etsa, Qozog'istonda bu ko'rsatkich 0,050–0,090 AQSH dollari, Turkmanistonda esa 0,025–0,040 AQSH dollari oralig'ida kuzatiladi. Natijada O'zbekistondagi gaz narxi Turkmanistonga nisbatan o'rtacha 4–6 barobar yuqori darajada ekanligi aniqlanadi.

Shu bilan birga, jahon o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda O'zbekistonda elektr energiyasi narxi nisbatan past ekanligi kuzatiladi. Biroq issiqxona mahsulotlari tashqi bozorlarda asosan qo'shni mamlakatlar mahsulotlari bilan raqobatlashishi sababli, raqobat muhitini baholashda global emas, balki mintaqaviy narx nisbatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Turkmaniston va Qozog'istondagi nisbatan past energiya tariflari mazkur mamlakatlar ishlab chiqaruvchilari uchun qo'shimcha iqtisodiy ustunlikni shakllantirmoqda.

Iqtisodiy nazariyaga muvofiq, energiya resurslari narxining pasayishi ishlab chiqarishning o'zgaruvchan xarajatlarini qisqartiradi va mahsulot birligi tannarxini kamaytiradi. Issiqxona xo'jaliklarida isitish, yoritish, ventilyasiya va sug'orish tizimlari energiya sarfining asosiy yo'nalishlari hisoblangani uchun energiya tariflaridagi har qanday farq mahsulot tannarxida sezilarli aks etadi. Shu sababli, energiya resurslari arzon bo'lgan mamlakatlarda yetishtirilgan mahsulotlar tashqi bozorlarga pastroq narxlarda taklif qilinishi mumkin.

Umuman olganda, 1-jadval ma'lumotlari Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida energiya resurslari narxlarida sezilarli tafovutlar mavjudligini va mazkur holat issiqxona mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari hamda raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shuning uchun keyingi tahlillarda energiya xarajatlarining mahsulot tannarxidagi ulushini baholash va uning eksport salohiyatiga ta'sirini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Energiya xarajatlarining issiqxona mahsuloti tannarxiga ta'siri.

Issiqxona xo'jaliklari faoliyatida energiya resurslari muhim ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Issiqxona xo'jaliklari uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra, mahsulot tannarxi tarkibida energiya xarajatlarining ulushi o'rtacha 25 foizni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, kredit mablag'laridan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari ham tannarxning qariyb 30 foiziga teng bo'lib, ishlab chiqaruvchilarning umumiy moliyaviy yukini oshirmoqda [7]. Bu holat energiya va moliyaviy resurslar xarajatlari issiqxona





xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan issiqxonalarning aksariyati yilning sovuq mavsumida isitish tizimlaridan foydalanadi. Shu sababli tabiiy gaz narxi va uning uzluksiz ta'minoti mahsulot yetishtirish xarajatlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tabiiy gaz ta'minotidagi cheklovlar yoki energiya manbalari almashinuvi ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga va mahsulot sifatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin[8].

2-jadval ma'lumotlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mahsulot tannarxida energiya xarajatlarining ulushi o'rtacha 25 foizni tashkil etsa, Turkmanistonda bu ko'rsatkich 8–10 foiz atrofida shakllangan. Natijada energiya resurslari bilan bog'liq xarajatlar bo'yicha O'zbekiston issiqxona xo'jaliklari raqobatchi mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq xarajat yukiga ega bo'lmoqda. Bu esa mahsulot tannarxining ortishi va tashqi bozorlarda narx bo'yicha raqobat imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

2-jadval

Issiqxonada pomidor yetishtirishda tannarx tarkibi (O'zbekiston va Turkmaniston davlatlarining taqqoslama ko'rsatkichlari asosida)

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Turkmaniston	Farq (marta)
Energiya ulushi (tannarxdan)	~25%	~8–10%	2,5–3x
Gaz narxi, \$/m ³	0,155	0,025–0,040	4–6x
Elektr narxi, \$/kWh	0,085	~0,010	8,5x
Ulgurji savdo narxi, \$/kg (2024)	1,17	≤1,00	Raqobat mushkul
Qarz xizmati (tannarxdan)	~30%	Ma'lumot yo'q	—

Manba: [6, 7, 9] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, tabiiy gaz va elektr energiyasi tariflaridagi farq mahsulot birligi uchun sarflanadigan energiya xarajatlarida ham sezilarli tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, tabiiy gaz narxi bo'yicha 4–6 barobar, elektr energiyasi bo'yicha esa 8 barobardan ziyod farq mavjudligi energiya sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarda tannarxning sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, bu holat ishlab chiqaruvchilarning rentabellik darajasini pasaytirishi va investitsiya jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Demak, energiya resurslari xarajatlari issiqxona mahsulotlari tannarxini shakllantiruvchi hal qiluvchi omillardan biri bo'lib, ularning yuqori ulushi tarmoqning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston issiqxona mahsulotlari eksporti dinamikasi va bozorlardagi o'zgarishlar.

3-jadval ma'lumotlari O'zbekiston issiqxona pomidori eksportida so'nggi yillarda muayyan pasayish tendensiyasi kuzatilayotganini ko'rsatadi. Agar 2019 yilda mamlakat mintaqada yetakchi eksportchilardan biri sifatida





shakllangan bo'lsa, keyingi yillarda tashqi bozorlarda raqobat muhitining kuchayishi va ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi eksport hajmlariga ta'sir ko'rsatgan.

3-jadval O'zbekiston issiqxona pomidori eksporti dinamikasi (2019–2025)

Yil	Eksport, tonna	O'zgarish	Bozor holati
2019	~70 000	Eng yuqori daraja	Markaziy Osiyoda yetakchi
2022	~211 000 (jami)	+26% (2021 ga nisbatan)	Turkmaniston yetakchiga aylandi
2023	53 000–55 000	5 yillik minimum	Tojikiston bozori yo'qotildi
2025*	~9 000 (yan–apr)	–23% yillik; –3,5x (2021 ga)	Barcha bozorlarda ulush kamaydi

*2025-yil yanvar–aprel oylari bo'yicha. Manba: [6, 10] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xususan, 2025 yilning yanvar–aprel oylarida eksport hajmi 9 ming tonnani tashkil etgan bo'lib, bu 2021 yilning mos davriga nisbatan 3,5 barobar kam ko'rsatkichdir [6]. Eksport hajmlarining qisqarishi tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi, logistika xarajatlari, energiya resurslari narxlari va bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar kabi omillar bilan izohlanishi mumkin.

Tashqi savdo geografiyasi tahlili ham O'zbekiston mahsulotlarining ayrim an'anaviy bozorlardagi ulushi qisqarganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi raqobatning kuchayishi natijasida ayrim bozor segmentlarida raqobatchi davlatlar pozitsiyasining mustahkamlangani kuzatilmoqda [10]. Bu holat tashqi bozorlarda mahsulotning narx va sifat jihatidan raqobatbardoshligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Narx dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024 yil dekabr oyida O'zbekiston pomidorining ulgurji narxi 1 kg uchun 1,17 AQSH dollarini tashkil etgan. Bir qarashda yuqori narx ishlab chiqaruvchilar uchun ijobiy holatdek ko'rinsa-da, yuqori energiya va moliyaviy xarajatlar sharoitida mazkur narx darajasi ham yetarli rentabellikni ta'minlamasligi mumkin. Shu bois mahsulot narxidan ko'ra uning tannarxi va xarajatlar tarkibini optimallashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shni davlatlar subsidiya siyosatining tahlili.

Turkmaniston tajribasi shuni ko'rsatadiki, issiqxona xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshirishda energiya resurslaridan samarali foydalanish va ularning iqtisodiy jihatdan maqbul narxlarda yetkazib berilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda issiqxona maydonlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023–2024 yillarda issiqxona maydonlarini kengaytirish, energiya tejamkor texnologiyalar, jumladan, issiqlik nasoslari va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan yechimlarni joriy qilish bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirilgan [6; 9]. Bu esa tarmoqning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qozog'istonda ham issiqxona xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning kompleks mexanizmi shakllantirilgan. 2023 yildan boshlab





amalga oshirilayotgan dastur doirasida energiya resurslari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, urug'chilik, suv ta'minoti hamda kapital qurilish bilan bog'liq xarajatlarni qisman qoplash mexanizmlari nazarda tutilgan[12]. Mazkur chora-tadbirlar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahalliy mahsulotlarning ichki bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari mazkur mamlakatlarda issiqxona mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, investitsiya faolligini rag'batlantirish va ichki bozor ta'minotini yaxshilashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada mintaq mamlakatlarida issiqxona mahsulotlari bozorida raqobat muhiti yanada kuchayib bormoqda.

Ushbu tendensiyalar O'zbekiston issiqxona xo'jaliklari uchun ham energiya samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va tarmoqni qo'llab-quvvatlashning bozor tamoyillariga asoslangan samarali mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo mamlakatlarida energiya resurslari narxlaridagi farqlar issiqxona xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Xususan, tahlillar O'zbekistonda elektr energiyasi va tabiiy gaz tariflari ayrim qo'shni mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Bu holat energiya sig'imi yuqori bo'lgan issiqxona xo'jaliklarida mahsulot tannarxining oshishiga va tashqi bozorlarda raqobat imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida O'zbekiston issiqxona mahsulotlari eksporti hajmida pasayish tendensiyasi kuzatilayotganligi, mintaq mamlakatlarida esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va investitsiya faolligining kuchayishi natijasida ishlab chiqarish hajmlari ortib borayotganligi aniqlandi. Bu holat tashqi bozorlarda raqobat muhitining yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qisqa muddatli chora-tadbirlar (1–2 yil):

Issiqxona xo'jaliklarini kuz-qish mavsumida energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish; energiya xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan manzilli iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish; issiqxona mahsulotlari yetishtiruvchilarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning kompleks mexanizmlarini, jumladan, imtiyozli moliyalashtirish va investitsiya dasturlarini kengaytirish; energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish.

O'rta muddatli chora-tadbirlar (3–5 yil):

Xalqaro moliya institutlari ishtirokida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish; issiqlik nasoslari, qayta





tiklanuvchi energiya manbalari va resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish; eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish orqali tashqi savdo yo'nalishlarini kengaytirish; issiqxona mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish.

Uzoq muddatli chora-tadbirlar (5 yildan ortiq):

Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik doirasida agrar mahsulotlar bozorida raqobat muhitini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish; issiqxona mahsulotlari savdosi uchun qulay institutsional va huquqiy shart-sharoitlarni takomillashtirish; energiya samaradorligi yuqori bo'lgan innovatsion ishlab chiqarish modellari bosqichma-bosqich o'tish; tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan raqamlashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish.

Umuman olganda, O'zbekiston issiqxona xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarni optimallashtirish, investitsiya faolligini rag'batlantirish hamda eksport bozorlarini kengaytirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish tarmoqning barqaror o'sishi, eksport salohiyatining yuksalishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi statistik to'plami. — Toshkent, 2023. — 180 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Tabiiy va suyultirilgan gazning narxлари va tariflari [Elektron resurs]. — URL: <https://gov.uz/oz/minenergy/sections/view/23145> (murojaat sanasi: 05.06.2026).
3. Stiglitz J.E. The Great Divide: Unequal Societies and What We Can Do About Them. — New York: Norton, 2015. — 448 p.
4. World Trade Organization. Agreement on Subsidies and Countervailing Measures. — Geneva: WTO, 2020.
5. Lerman Z., Sedik D. Agricultural Development in Uzbekistan: The Effect of Ongoing Reforms. — Jerusalem: Hebrew University, 2014. — 52 p.
6. HortiDaily. Uzbekistan's greenhouse tomato exports continue to fall, Turkmenistan strengthens regional presence [Elektron resurs]. — URL: <https://www.hortidaily.com/article/9777864> (murojaat sanasi: 23.10.2025).
7. Gazeta.uz. "Samarali va barqaror muqobillar mavjud emas". O'zbekistonda issiqxonalarning toza energiyaga o'tishiga nima to'sqinlik qilmoqda? [Elektron resurs]. — URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/30/greenhouses> (murojaat sanasi: 30.04.2025).
8. HortiDaily. Uzbekistan's greenhouses struggle with energy crisis: can sustainable solutions help? [Elektron resurs]. — URL: <https://www.hortidaily.com/article/9715102> (murojaat sanasi: 28.03.2025).





9. Tridge. Turkmenistan expected to double tomato production [Elektron resurs]. — URL: <https://www.tridge.com/news/turkmenistan-expected-to-double-tomato-production> (murojaat sanasi: 11.12.2023).
10. Times of Central Asia. Turkmenistan Ousts Uzbekistan from Tajikistan's Market for Greenhouse Tomatoes [Elektron resurs]. — 2024-yil 28-iyun.
11. EastFruit. Greenhouse tomato glut: Turkmenistan and Uzbekistan struggle amid Russian market slump [Elektron resurs]. — 2024-yil 18-dekabr.
12. Invest.gov.kz. Greenhouse Construction — Kazakhstan Investment Portal [Elektron resurs]. — URL: <https://invest.gov.kz/doing-business-here/regulated-sectors/agro/greenhouse-construction> (murojaat sanasi: 2024).
13. GlobalPetrolPrices.com. Natural Gas and Electricity Prices Database — Central Asia [Elektron resurs]. — URL: <https://www.globalpetrolprices.com> (murojaat sanasi: 2025–2026).



2026-yil, iyun. №6-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali
2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr
raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**